



AXBOROT XATI

Hurmatli hamkasblar!

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Harbiy tibbiyot instituti Ilmiy tadqiqot markazi
Sizni "Harbiy tibbiyotning dolzarbligi va muammolari" mavzusida **on-line** tarzda
o'tkaziladigan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga taklif etadi

Konferensiya bo'lib o'tadigan manzil, sana va vaqti: O'zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Harbiy tibbiyot instituti, **2026-yil 5 noyabr**
soat 14:30 da (on-line va offline).

Tashkilotchilar: O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universiteti Harbiy tibbiyot instituti Ilmiy tadqiqot markazi

Konferensiya o'tkazish tillari: o'zbek, rus va ingliz.

Konferensiya tashkiliy qo'mitasi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari professor-
o'qituvchilarini, QK kuch-tuzilmalari tibbiyot mutaxassislarini, MV MHKG shaxsiy tarkibini
hamda ushbu mavzuga qiziqish bildirganlarni konferensiyada ishtirok etishga taklif etadi.

Konferensiya harbiy tibbiyotning dolzarbligi va muammolari hamda ushbu yo'nalish
istiqbollari borasida o'zaro tajriba, g'oya hamda fikr almashish jarayonini o'z ichiga oladi.

Konferensiya yo'nalishlari:

1. Harbiy tibbiyotning dolzarb masalalari va rivojlanish istiqbollari;
2. Jangovar jarohatlar, diagnostika, davolash va reabilitatsiya;
3. Jangovar sharoitda tibbiy yordam va evakuatsiyani tashkil etish;
4. Harbiy epidemiologiya, gigiena va infeksiyon kasalliklar profilaktikasi;
5. Harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy salomatligi;
6. Harbiy tibbiyotda zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt;
7. Harbiy tibbiy ta'lim, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar;
8. Harbiy tibbiy ta'minot, logistika va favqulodda vaziyatlarda tibbiy xizmat.

Konferensiyada ishtirok etish shakllari:

1. Ma'ruza bilan ishtirok etish (1-ilova bo'yicha).

2. Tezislarni to'plamiga tezis yuborish (2-ilova bo'yicha).

Tezislarni 2026 yil 5 -oktabrgacha qabul qilinadi.

2026-yil 5-oktabrdan kechiktirilgan hamda konferensiya yo'nalishlariga mos kelmagan, talab asosida taqdim etilmagan tezislarni qabul qilinmaydi.

Tezis va ma'ruzalarni elektron shaklda quyidagi telegramm manzilga yuboring:
<https://t.me/rkonferensiya2026yil>

Ma'lumot uchun ishchi telefon: (+998 97) 003-23-87

1-ilova

Ma'ruza bilan ishtirok etish qaydnomasi namunasi

t/r	Konferensiya ishtirokchisi qaydnomasi	
1.	Familiya, ism, otasining ismi (to'liq)	
2.	Lavozim, ilmiy unvon, ilmiy daraja	
3.	Ish joyi/o'qish (to'liq shaklda yozilsin), shahar	
4.	Ma'ruza mavzusi	
5.	Telefon raqami	
6.	PDF shaklda ma'ruza (fayl qo'shib jo'natiladi)	

2-ilova

Tezislarni taqdim etish talablari:

Tezis **Microsoft Office Word (2003, 2010, 2013)** matn muharririda terilishi shart.

A4 formatda: chap tomondan - 3,0 sm, o'ng tomondan - 1,5 sm, yuqori va pastdan - 2,0 sm maydon qoldiriladi. Shrift - Times New Roman, 12 shrift, 1,0 interval.

1. Tezisning nomi (o'rtadan qoraytirilgan bosh harflar bilan).

2. Muallif (lar) ning F.I.O. (o'rtadan qoraytirilgan harflar bilan), ish (xizmat) joyi.

3. Asosiy matn: tadqiqotning dolzarbligi;

ilmiy ishning maqsadi;

materiallar va usullar;

tadqiqot natijalari;

xulosa.

4. Tezislarni o'zbek, rus yoki ingliz tillarida rasmiylashtirilishi mumkin.

5. Tezislarni hajmi 1 betdan oshmasligi lozim!

Formula, jadval, illustrasiyalarni qo'llanilmaydi!

Tezislarni ichki ekspertizadan o'tkaziladi!

1 ta muallif 2 tagacha tezis topshirish huquqiga ega.

Chop etishga tavsiya qilinmagan tezislarni to'plamda bosilmaydi va qaytarib berilmaydi.

2-ilovaga namuna

HARBIY TIBBIYOTDA RAQAMLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

N.M. Burankulova ¹, L.X. Xolmamatova ²

¹Harbiy tibbiyot instituti, ²O'RV Markaziy harbiy klinik hospitali

Dolzarlilik. Hozirgi kunda harbiy tibbiyotda tibbiy yordamni tezkor va sifatli tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Raqamlashtirish orqali harbiy xizmatchilarning tibbiy ma'lumotlarini tezkor saqlash va uzatish, masofaviy tibbiy maslahatlar olish hamda shoshilinch holatlarda to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni harbiy tibbiyotga joriy etish tibbiy xizmat samaradorligini oshirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maqsad. Harbiy tibbiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatini yoritish, ularning tibbiy yordam ko'rsatish tezkorligi va sifatini oshirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilish hamda raqamlashtirishning harbiy tibbiyot tizimi samaradorligiga ta'sirini baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda harbiy tibbiyotni raqamlashtirishga oid ilmiy adabiyotlar, tibbiy axborot tizimlari va zamonaviy raqamli texnologiyalar haqidagi ma'lumotlar material sifatida qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanilib, raqamli texnologiyalarning harbiy tibbiy xizmat samaradorligiga ta'siri baholandi.

Tadqiqot natijalari O'tkazilgan adabiyotlar tahlili natijasida harbiy tibbiyotni raqamlashtirish tibbiy xizmatning tezkorligi, axborot almashinuvi va tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, AQSh Harbiy tibbiyot tizimida telemeditsina xizmatlaridan foydalanish 2006–2018 yillar oralig'ida 2 549 tadan 48 667 tagacha oshib, qariyb 19 barobarga ko'paygan. Bu ko'rsatkich telemeditsinadan foydalanish qariyb 19 barobarga oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, telemeditsinaning umumiy xizmatlarida shifokorlar ishtiroki taxminan 60% ni tashkil etgan bo'lib, eng yuqori qo'llanish ko'rsatkichi ruhiy salomatlik bilan bog'liq tibbiy holatlarda kuzatilgan.

Harbiy xizmat sharoitida virtual tibbiy texnologiyalarning amaliy samaradorligini baholagan tadqiqotda ham ijobiy natijalar olingan. Xususan, 6 oylik harbiy vazifa davomida virtual tibbiy xizmatlardan foydalanish natijasida 213 nafar harbiy xizmatchining sog'lig'i saqlab qolingan. Bunda virtual tibbiy murojaatlarning 90% i sinxron videokonsultatsiyalar, 10% i esa asinxron tibbiy konsultatsiyalar hisobiga to'g'ri kelgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur yondashuv orqali harbiy xizmatchilar mehnat unumdorligining yo'qotilishi bilan bog'liq 87 330 AQSh dollari miqdoridagi xarajatning oldi olingan. Telemeditsina nafaqat tibbiy yordamni yaqinlashtirish, balki harbiy xizmatchilarning xizmat joyini tark etishini kamaytirish va tibbiy evakuatsiyaga bo'lgan ehtiyojni qisqartirishda ham muhim vosita bo'ldi. Yangi texnologiyalarni harbiy tibbiyot tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish, ularning axborot xavfsizligini ta'minlash va mavjud tibbiy axborot tizimlarini o'zaro integratsiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa Tahlillar shuni ko'rsatdiki, elektron tibbiy kartalar, telemeditsina va raqamli axborot tizimlaridan foydalanish tibbiy ma'lumotlarni tezkor almashish, tibbiy qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash va bemorlar xavfsizligini ta'minlash imkonini kengaytiradi. Raqamlashtirish jarayonida axborot xavfsizligi, ma'lumotlar maxfiyligi, texnik infratuzilma va elektron tizimlarning o'zaro integratsiyasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Harbiy tibbiyotda raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, tibbiy xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va ishonchli axborot xavfsizligi tizimini shakllantirish tibbiy xizmat samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.



ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО

Уважаемые коллеги!

Научно-исследовательский центр Военно-медицинского института Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан приглашает Вас принять участие в Республиканской научно-практической конференции на тему:

«Актуальность и проблемы военной медицины»», которая будет проводиться в онлайн-формате

Место, дата и время проведения конференции: Военно-медицинский институт Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, **5 ноября 2026 года в 14:30** (on-line и offline)

Организатор: Научно-исследовательский центр Военно-медицинского института Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан

Рабочие языки конференции: узбекский, русский и английский.

Организационный комитет конференции приглашает к участию профессорско-преподавательский состав высших медицинских образовательных учреждений, специалистов медицинской службы силовых структур Вооружённых Сил, сотрудников ЦВКГ Министерства обороны, а также всех заинтересованных лиц.

Конференция предполагает широкий обмен опытом, идеями и взглядами, касающимися актуальности и проблем военной медицины, а также перспектив развития этой сферы.

Основные направления конференции:

1. Актуальные вопросы и перспективы развития военной медицины;
2. Боевые травмы, диагностика, лечение и реабилитация;
3. Организация медицинской помощи и эвакуации в боевых условиях;
4. Военная эпидемиология, гигиена и профилактика инфекционных заболеваний;
5. Физическое и психическое здоровье военнослужащих;
6. Современные технологии, цифровизация и искусственный интеллект в военной медицине;
7. Военно-медицинское образование, подготовка кадров и научные исследования;
8. Военно-медицинское снабжение, логистика и медицинское обеспечение в чрезвычайных ситуациях.

Формы участия в конференции:

1. Участие с докладом (согласно Приложению 1).
2. Направление тезисов для публикации в сборнике материалов конференции (согласно Приложению 2).

Тезисы принимаются до 5 октября 2026 года.

Тезисы, поданные **после 5 октября 2026** года, не соответствующие тематике конференции или оформленные с нарушением требований, приниматься не будут.

Тезисы и доклады необходимо направлять в электронном виде по следующему Telegram-адресу: **<https://t.me/rkonferensiya2026yil>**

Контактный телефон: (+998 97) 003-23-87

Приложение 1

Образец регистрационной формы для участия с докладом

№	Регистрационные данные участника	
1.	Фамилия, имя, отчество (полностью)	
2.	Должность, учёное звание, учёная степень	
3.	Место работы/учёбы (указать полностью), город	
4.	Тема доклада	
5.	Контактный номер телефона	
6.	Доклад в формате PDF (файл направляется во вложении)	

Приложение 2

Требования к оформлению тезисов

Тезисы должны быть набраны в текстовом редакторе **Microsoft Office Word (2003, 2010, 2013)** формата A4 со следующими параметрами полей: слева — 3,0 см, справа — 1,5 см, сверху и снизу — по 2,0 см. Шрифт — Times New Roman, размер шрифта 12 pt, межстрочный интервал — 1,0.

1. Название тезисов — по центру, прописными буквами, жирным шрифтом.
2. Ф.И.О. автора(ов) — по центру, жирным шрифтом, ниже указывается место работы (службы).
3. Основной текст должен содержать:
 - актуальность исследования;
 - цель научной работы;
 - материалы и методы;
 - результаты исследования;
 - выводы.
4. Тезисы могут быть оформлены на узбекском, русском или английском языках.
5. Объём тезисов не должен превышать 1 страницу.

Использование формул, таблиц и иллюстраций не допускается!

Все тезисы проходят внутреннюю экспертизу!

Один автор имеет право представить не более двух тезисов.

Тезисы, не рекомендованные к публикации, в сборнике не публикуются и авторам не возвращаются.

АКТУАЛЬНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ В ВОЕННОЙ МЕДИЦИНЕ

Буранкулова Н.М.¹, Холмаматова Л.Х.²

¹Военно-медицинский институт,

*²Центральный военный клинический госпиталь Министерства обороны Республики
Узбекистан*

Актуальность. В настоящее время организация оперативной и качественной медицинской помощи в военной медицине имеет огромное значение. Цифровизация позволяет быстро хранить и передавать медицинские данные военнослужащих, получать дистанционные медицинские консультации и принимать правильные решения в чрезвычайных ситуациях. Внедрение современных цифровых технологий в военную медицину является одним из актуальных направлений повышения эффективности медицинского обслуживания.

Цель. проанализировать важность использования цифровых технологий в военной медицине, проанализировать их потенциал для повышения скорости и качества медицинской помощи, а также оценить влияние цифровизации на эффективность военно-медицинской системы.

Материалы и методы. В исследовании в качестве материалов использовались научная литература по цифровизации военной медицины, информация о медицинских информационных системах и современных цифровых технологиях. Для оценки влияния цифровых технологий на эффективность военно-медицинских служб применялись методы анализа литературы, сравнения, обобщения и статистического анализа данных.

Результаты. Обзор литературы показал, что цифровизация военной медицины имеет важное значение для повышения скорости оказания медицинских услуг, обмена информацией и доступности медицинской помощи. В частности, использование телемедицинских услуг в военно-медицинской системе США увеличилось с 2549 до 48667 в период с 2006 по 2018 год, что составляет почти 19-кратное увеличение. Этот показатель свидетельствует о почти 19-кратном росте использования телемедицины. Кроме того, участие врачей в общих телемедицинских услугах составило приблизительно 60%, при этом самый высокий уровень использования наблюдался при лечении заболеваний, связанных с психическим здоровьем.

Исследование, оценивающее практическую эффективность виртуальных медицинских технологий в военной службе, также дало положительные результаты. В частности, за 6-месячную военную миссию благодаря использованию виртуальных медицинских услуг удалось сохранить здоровье 213 военнослужащих. Из них 90% виртуальных медицинских консультаций представляли собой синхронные видеоконсультации, а 10% — асинхронные. Согласно исследованию, такой подход позволил предотвратить потери производительности труда военнослужащих в размере 87 330 долларов. Телемедицина стала важным инструментом не только для приближения медицинской помощи к месту службы, но и для сокращения числа военнослужащих, покидающих место службы, и уменьшения необходимости медицинской эвакуации. Одной из важных задач является постепенное внедрение новых технологий в военно-медицинскую систему, обеспечение их информационной безопасности и интеграция существующих медицинских информационных систем.

Выводы. Анализ показал, что использование электронных медицинских карт, телемедицины и цифровых информационных систем расширяет возможности для быстрого обмена медицинскими данными, поддержки принятия медицинских решений и обеспечения безопасности пациентов. В процессе цифровизации особое внимание следует уделять информационной безопасности, конфиденциальности данных и интеграции технической инфраструктуры и электронных систем. Постепенное внедрение цифровых технологий в военную медицину, повышение цифровой компетентности медицинского персонала и формирование надежной системы информационной безопасности являются важными условиями повышения эффективности медицинских услуг.